

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**70812101- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi magistratura
mutaxassisligining malaka talablari**

ЎЗР ОҮМТВ

Буйруқ № 367

" 21 " 08 2023 йил

Toshkent-2023

ISHLAB CHIQILGAN :

- Toshkent davlat agrar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil « 21 » avgust dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T.r.		bet
1.	<i>70812101- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1	<i>70812101- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> magistratura mutaxassisligining malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2	<i>70812101- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> magistratura mutaxassisligining kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1	<i>70812101- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> magistratura mutaxassisligining kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2	<i>70812101- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> magistratura mutaxassisligining kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3	<i>70812101- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> magistratura mutaxassisligining kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4	<i>70812101- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> magistratura mutaxassisligining kasbiy vazifalari.....	5
2	<i>70812101- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> magistratura mutaxassisligining kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.	7
2.1	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	8
2.3.1	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2	<i>70812101 – Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> magistratura mutaxassisligining ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kredilar.....	9
2.3.3	<i>70812101 – Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:.....	9
	Bibliografik ma'lumotlar.....	10
	Kelishuv varag'i.....	11

70812101- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi

70812101-Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi mutaxassisligi bo'yicha magistratlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 70812101- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi magistratura mutaxassisligining malaka talabining qo'llanishi.

Malaka talabi 70812101- *Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistratlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalari boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor- o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

- magistrant bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim muassasasining moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavr bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2 70812101- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi magistratura mutaxassisligining kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 70812101- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi magistratura mutaxassisligining kasbiy faoliyatining sohalari.

70812101- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi magistratura mutaxassisligining - "Dorivor o'simliklarni ilmiy asoslangan holda yetishtirishga oid" ta'lim sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, barcha ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, dorivor o'simliklar xom - ashyosi mahsuldorligini va sifatini oshirish maqsadida yer, suv, energetika va moddiy-texnika resurslaridan oqilona foydalanish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishdan iborat bo'lgan dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash tarmog'idagi fan va ishlab chiqarish, dorivor o'simliklarda ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimi muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishni tashkillashtirish kasbiy ko'nikma, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2 70812101- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi magistratura mutaxassisligining kasbiy faoliyatining obyektlari:

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;
- yer, suv, energetika va moddiy texnik resurslar, dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnikasi;
- kimyoviy va biologik vositalar;
- dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash jarayoni;
- dorivor o'simliklarni seleksiyasi va urug'larini tayyorlash jarayoni;
- dorivor daraxt va butalar turlarining assortimenti;
- dorivor o'simliklar urug'lari va ko'chatlari;
- dorivor o'simliklarni tabiiy va madaniy maydonlari;
- dorivor o'simliklar yetishtiriladigan korxonalar va tashkilotlarda boshqaruv tizimi;
- ilmiy – tadqiqot jarayoni;
- o'quv jarayoni.

70812101- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi magistratura mutaxassisligining bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan majburiy va tanlov fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish xuquqiga ega bo'ladi. Magistratura va undan yuqori ta'lim yo'nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 70812101- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi magistratura mutaxassisligining kasbiy faoliyatlarining turlari.

- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- pedagogik faoliyat;
- loyiha- tadqiqot;
- amaliy ishlab chiqarish faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

1.2.4 70812101- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi bo'yicha magistratura mutaxassisligining kasbiy vazifalari.

70812101- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7 – malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistr bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi zarur:

Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'naltirilgan holda qidirish va topish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;
- dorivor o'simliklar mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

- dorivor o'simliklarni yetishtirishning progressiv texnologiyalarini tatbiq etish;
- dorivor o'simliklarda eksperimental izlanish ishlarini namunaviy uslubiyatga asosan mustaqil o'tkazish va ulardan olingan natijalarga ishlov berishi;
- ishlanmalar bo'yicha ilmiy hisobotlar tayyorlash;
- ilmiy ishlarda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishi;
- ilmiy seminarlar, simpoziumlar va ilmiy-amaliy konferensiyalar ishida ishtirok etishi va ma'ruzalar qilish;
- innovatsion ko'rgazma yarmarkalarida ilmiy izlanishlar natijalarini namoyish etishi;
- innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish;
- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, dorivor o'simliklar mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;
- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;
- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Loyiha - texnologik faoliyatida:

- dorivor o'simliklarni yetishtirish bo'yicha loyihalarni ishlab chiqish va birlamchi manbalarni tayyorlash;
- dorivor o'simliklarni yetishtirish bo'yicha agrotexnik tadbirlari va texnologik xaritasini tuzish;
- dorivor o'simliklarni yetishtirishda ekish sxemasi va ko'chat o'tkazish muddatlari hamda o'stirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqish;
- dorivor o'simliklar xom – ashyosi sifatini aniqlashda chet el va vatanimizda qo'llaniladigan usullari hamda asboblaridan foydalanish;
- loyiha tuzishda AKT va kompyuter texnikasidan foydalanish;

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:

- dorivor daraxt va buta o'simliklarining urug'lari va ko'chatlarini yetishtirishda texnologik kartalardan foydalanish;
- dorivor o'simliklarni urug'lari va ko'chatlarini yetishtirishda yangi texnologiyalarini tashkil etish;
- dorivor o'simliklarni yetishtirishda zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish;
- ishlab chiqarish jarayonlari va agrotexnik tadbirlarni bajarilish sifatini nazorat qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalar, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda qo'llash;
- dorivor o'simliklarni plantatsiyalarini yaratishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash;
- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim;
- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish lozim.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- elektron texnologiyalar asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;
- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini takomillashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish, hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat xavfsizligi talablariga mos holda dorivor o'simliklarni yetishtirish jarayonlari sifatini nazorat qilish monitoringini amalga oshirish;

- dorivor o'simliklar sohasida ishlab chiqarish faoliyati sifatini nazorat boshqaruvini takomillashtirish;

- axborot texnologiyalarining zamonaviy tizimidan foydalanib ishlab chiqarish jarayoni monitoringi mexanizmi va sifatini baholashni uslublarini ishlab chiqish;

- atrof – muhitni muhofaza qilish, hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat xavfsizligi talablariga mos holda dorivor o'simliklar sohasida ishlab chiqarish jarayonlari sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish.

2. 70812101- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi magistratura mutaxassisligining kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- dorivor o'simliklarini yetishtirishda texnologik kartalardan foydalanish;

- dorivor o‘simliklarni urug‘ini va ko‘chatini yetishtirishning yangi texnologiyalarini tashkil etish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish, hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat xavfsizligi talablariga mos holda dorivor o‘simliklar sohasida ishlab chiqarish jarayonlari sifatini nazorat qilish monitoringgini amalga oshirish;

- dorivor o‘simliklar yetishtirishda ishlab chiqarish faoliyati sifatini nazorat-boshqaruvini takomillashtirish;

- axborot texnologiyalarining zamonaviy tizimidan foydalanib ishlab chiqarish jarayoni monitoringgi mexanizmi va sifatini baholash uslublarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish, hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat xavfsizligi talablariga mos holda dorivor o‘simliklar sohasida ishlab chiqarish jarayonlari sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Magistrlar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma – ketlikda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta‘minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta‘lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, magistrnlarning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab – quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Mutaxassislik bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

ilmiy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustaxkamlash va ilmiy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli ilmiy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

2.3.1. Kvalifikatsiya: agronom, dorishunos, texnolog, tadqiqotchi – pedagog.

2.3.2. 70812101- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi magistratura mutaxassisligining ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1380	46
Tanlov fanlar	420	14
Ilmiy faoliyat	1800	60

2.3.3. 70812101- Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning xajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00	MFM2440	Majburiy fanlar	1380	46	
1.01	ITMM1304	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	2
1.02	MFO'MM1404	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	1
1.03	DO'EITUM14004	Dorivor o'simliklarni yetishtirishda ilmiy-tadqiqot uslublari	120	4	1
1.04	DO;TRM1406	Dorivor o'simliklarni introduksiyasi va akklimatizatsiyasi	180	6	1
1.05	DO'EITM1406	Dorivor o'simliklarni yetishtirishda innovatsion texnologiyalar	180	6	2
1.06	DO'RM2404	Dorivor o'simlik resurslari va muxofazasi	120	4	3
1.07	DO'BXM2406	Import va eksportbop dorivor o'simliklar	180	6	3
1.08	DO'XATTM2406	Dorivor o'simliklar xom ashyosini tayyorlash texnologiyasi	180	6	3
1.09	DO'UITM1406	Dorivor o'simlik urug'chiligida innovatsion texnologiyalar	180	6	1
2.00	TFM2320	Tanlov fanlari	420	14	
2.00		Tanlov fanlari (3 ta fan)			2,3,
		Jami	1800	60	
3.00	IFM2460	Ilmiy faoliyat	1800	60	
		HAMMASI	3600	120	


Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, masofaviy axborot texnologiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, dorivor o'simliklar turlarini tanlash, dorivor o'simliklarni yetishtirish sohasi, dorivor xom – ashyosi sifatini baholash va nazorat qilish, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, ilmiy amaliyoti, davlat attestatsiyasi, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, texnik qabul qilish, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy – tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy – tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, nazariy.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektor  S.Y. Islamov

2023 yil " 10 " 07



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Direktor

 Sh.U. Yakubov

2023 yil " 21 " 08

M.O.



Rektor

 K.S. Komilov

2023 yil " 20 " 07



"O'rmon xo'jaligi" ilmiy-tadqiqot instituti

Guliston Davlat universiteti

Direktor  S.A Arabov

2023 yil " 17 " 07

M.O.



Rektor

 M.T. Xodjiyev

2023 yil " 18 " 07

M.O.



TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

70812101- Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi magistratura ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari va asosiy kadrlar iste‘molchilari o‘rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent vil.

“10” 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, prof. S.Y.Islamov, Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori, dotsent K.S.Komilov, Guliston Davlat universiteti rektori, prof. M.T.Xodjiyev, O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti direktori, S.A Arabov, birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi magistratura ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70812101- Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi magistratura ta‘lim yo‘nalishi.

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Andijon qishloq xo‘jaligi
va agrotexnologiyalar instituti
rektori, dotsent**



K.S.Komilov

**Guliston Davlat universiteti
rektori, professor**



M.T.Xodjiyev

**Toshkent davlat agrar universiteti
birinchi prorektori, professor**



S.Y.Islamov